

## UYG‘ONISH DAVRI INGLIZ FALSAFASI

*Dina Shigabudinova Yasaviyevna*

*https://orcid.org/0000-0002-2718-0510*

*Buxoro Davlat Universiteti Horijiy fakultet*

*Fakultetlararo chet tillar kafedrası Ingliz tili(ESP)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz falsafasi F.Bekon, T.Gobbs hayoti va ijodi, ta'limoti yozgan asarlari haqida tushuntiriladi.

**Kalit so‘zlar:** Falsafa, empirizm, protestantlik, rasionalist, iordkansler, induktiv, eksperiment, sxolastika.

**Kirish:** Francis Bacon (talaffuzi: Frensis Bekon; 22-yanvar 1561, London — 9-aprel 1626, o‘sha yerda) — ingliz faylasufi, tabiatshunosi, mantiqshunosi, siyosiy arbob va tarixchi. Kembrij universitetini tugatgan (1575), Sudya, vazir, lordkansler bo‘lib ishlagan. Falsafaga oid 2 ta — „Yangi organon“ (1620), „Yangi Atlantida“ (1627) asari bor. Birinchi kitobida Aristotel „Organon“idagi deduktiv uslubning hayotdan ajralganligini tanqid qilib, induktiv uslubga asos soladi. Fan tajribaga asoslanishi kerakligi haqidagi g‘oyani olg‘a surib, i.t. ning kuzatish, eksperiment, tajriba uslublarini ishlab chikadi. Bacon bevosita tajribaga asoslangan bilimlar ishonorli bo‘lishini ko‘rsatdi.

Baconning fikricha, bilimning vazifasi tabiatdan inson manfaati yo‘lida foydalanish, ya’ni uning ustidan hukmronlik qilish, inson hayotini takomillashtirish, aqlni yangilash („idol“ yoki „alamat“)lardan tozalash lozim. Bilishda tajriba ikki xil bo‘ladi: 1) sinalgan tajriba bo‘lib, u insonga bevosita fonda keltiradi; 2) yo‘l ko‘rsatuvchi tajriba bo‘lib, uning yordamida narsalarning qonuniyati va xossalari o‘rganiladi. Bacon fanning aql bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Baconning „Yangi Atlantida“ asarida uning jamiyat haqidagi fiqolari aks etgan. Bacon jamiyatni fan va ishlab chiqarish asosida qayta tashkil etish g‘oyasini olg‘a surdi. Davlatni boshqarishda mutlaq monarxiya tarafdori bo‘lgan. Bacon ingliz materializmining va Yangi davr tajribaviy fanining asoschisi sifatida tan olingan bo‘lsada, xudoning mavjudligini inkor etmagan. Ingliz falsafasi. O‘sha davr falsafasining asosiy vakillaridan biri F. Bekon (1561-1626) yuqoridagi masala haqida shunday degan edi: «Moddiy dunyo, mamlakatlar, dengizlar, planeta juda keng bo‘lgani holda insonlarning ma’naviy dunyosini eski chegaralar bilan o‘rab qo‘yilishi sharmandalikdan boshqa narsa emas» («Yangi Organon» kitobi). Bekon ingliz falsafasining o‘rta asrlardagi taraqqiyotiga eng katta hissa qo‘shgan olimlardan biridir. Uning ta’limoticha, fanning yangi binosini ko‘rish uchun, to‘g‘ri fikrlashga o‘rganish kerak. Bekon ta’limoticha, tabiatni bilishda bir necha «idollar» insonga halaqit beradi. Ular inson aqlini o‘rab tashlaydi. Ular

asosan to'rtta. Birinchisi urug' idollari, bular inson zotiga, butun odamlarga xosdir. Masalan, Bekon shunday deydi: «insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuq ko'rsatadi. Ikkinchisi, g'or idollari. Bu har bir odamning o'z spesifik xususiyatlari natijasida yanglishishi. Ular fikrlash ufqining cheklanishidan tug'iladi. Bu narsa hamma narsani o'z nuqtai-nazari bilan ifodalash, o'zinnig tor doirasi bilan o'lchash natijasida vujudga keladi. Uchinchi, maydon idollari, bo'lib, u ma'lum bo'lgan tasavvurlarga tayanish odati, noto'g'ri yoki noaniq termonologiyalarga tanqidiy yondoshmaslik oqibatida vujudga keladi. Bu masalaga Bekon juda ham katta ahamiyat beradi. Masalan, u shuni ta'kidlaydiki, real borliqni ifodalaydigan yoki uni noaniq, mavhum ifodalaydigan so'zlar soxta tushunchalarni tug'diradiki, ular tafakkurga teskari ta'sir qiladi. To'rtinchisi, teatr idollari: ular avtoritetlar fikriga ko'r-ko'rona ergashib qadimgilarning falsafiy sistemalarini davom ettiraveradilar. Bekon tomonidan sxolastikaga qarshi qaratilgan idollarning tanqidi katta metodologik ahamiyatga egadir. Bekon bilish nazariyasining birinchi bosqichi esa tajribadir, ikkinchi bosqichi aqlidir. U tajriba ma'lumotlarini rasional qayta ishlaydi va umumlashtiradi. Bekon ta'limoticha, olim chumoliga o'xshab faqat yig'ish va yig'ilganlar bilan kifoyalanmasligi kerak, o'rgimchakka o'xshab hayotdan ajrab, faqat o'zining shaxsiy aqli bilan o'zining makrli falsafasini to'qimasligi kerak. Bekon ta'limoticha, olim asalariga o'xshab gullardan olib keyin ularni asalga aylantirishi lozim. Bekon o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlari bo'yicha kuchli markazlashgan davlat tarafdori bo'lgan. Jamiyat hayotida asosiy rolni Bekon fikricha san'at va savdo rivojlanishi o'ynaydi.

Uning ta'limotini Tomas Gobbs (1588-1679) takomillashtirgan va rivojlashtirgan. Gobbs moddiylikni asosiy substansiya deb hisoblagan, materiyaning abadiyligi, harakatning esa mexanistik tarzda amalga oshirishining tarafdori bo'lgan olimdir. U matematik sifatida borliqning namoyon bo'lishini geometriya fani nuqtai nazaridan tushuntirgan. Bilish nazariyasida Gobbs ko'proq empirik jihatlarga o'z e'tiborini qaratgan, sezgilarning bilimlar hosil qilish jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Jamiyat taraqqiyoti va unda davlatning o'rni hamda kelib chiqishi masalasida Gobbs ko'proq xususiy mulkchilikka asoslanadi. Shu bilan birga uning fikricha davlatning monarxiya shakli maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

Ingliz falsafasida Jon Lokk (1632-1704) qarashlari alohida o'rin tutadi. U tajribani bilishning asosiy manbai deb hisoblaydi. Bunda ichki va tashqi tajriba ajratib ko'rsatiladi. 1690 yilda Lokk tomonidan yozilgan «Inson aqli haqida tajriba» nomli asarida R. Dekartning «tug'ma g'oyalari» to'g'risidagi qarashlariga qarshi chiqadi. Lokkning fikricha bilish tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlardan iborat bo'lib, haqiqatlar esa kishilarning bu jarayonda hosil qilgan tushunchalari, g'oyalari va xulosalarining olamga mos kelishidan iboratdir.

Gobbs Tomas (1588.05.4, Malmsheri - 1679.04.12, Xarduik) - ingliz faylasufi. Ruhoniy oilasida tug'ilgan. Oksford univertetini bitirgan (1608). Gobbs Tomas dunyoqarashi 17-asr ingliz inqilobi ta'sirida shakllandi. Falsafada Gobbs Tomas zamonasidagi tabiatshunoslik bilan bog'liq mexanistik materializm tarafdori bo'lgan. U geometriya va mexanikani ilmiy tafakkurning ideal namunasi, deb bilgan. Tabiatni katta- kichikligi, shakli, o'rnini va harakati (joyini o'zgartirishi) bilan farqlanuvchi jismlar majmui, deb hisoblagan. Gobbs Tomas faqat real jismlar mavjud, qolganlari to'qib chiqarilgan tasavvurlardir, deydi. Uning tafakkurni fikr qiluvchi materiyadan ajratib bo'lmaydi, degan qarashi muhimdir. Gobbs Tomas inson aqlidagi tushuncha dastlab sezgi a'zolarida qisman yoki to'la vujudga keladi deb, empirik bilish nazariyasi mavqeyida turgan. Gobbs Tomas fikricha, davlat paydo bo'lguncha xususiy mulkchilik bo'lmagan. Kishilar bir-birini o'ldirib qo'ymasliklari, talamasliklari uchun kelishilgan holda, ayrimlarning xuquqini cheklash maqsadida davlat kelib chiqdi. Gobbs Tomas mutlaq monarxiyani davlatning eng yaxshi shakli desa-da, inqilobiy tamoyillarga ham o'rin bergan. Asosiy asarlari: «Falsafa asoslari» (1642-1658), «Fuqarolik haqidagi ta'limotning falsafiy elementlari» (1642), «Leviafan» (1651). Yangi davr ingliz falsafasining vujudga kelish shartlari va umumiy tavsifi

Asosiy qism : Yangi davr ingliz falsafasi (XVII-XVIII asrlar) Angliyadagi faylasuflar, boshqa davlatlardagi faylasuflarga, masalan, Germaniya faylasuflariga qarshi o'laroq, borliq muammolarini tushuntirishni afzal ko'rganlar;

Empirizmning rasionalizm ustidan hukmronligi (Angliya bilish masalalarida empirizm – falsafadagi bilishda rasionalizmlagi aql kabi emas, tajriba va hissiy qabul qilish asosiy ahamiyat kasb etuvchi yo'nalish – g'alaba qozongan o'z davri uchun noyob davlatlar sarasiga kirgan);

Ijtimoiy – siyosiy muammolarga katta qiziqish bilan qaralgan (Angliya faylasuflari borliq va bilishning mohiyatini, insonning dunodagi o'rnini tushuntirishga intilish bilan cheklanib qolmay, jamiyat va davlatning paydo bo'lish sabablarini izlaganlar, mavjud davlatlarning samarali tuzilish loyihalarini ilgari XVII-XVIII asrlar ingliz falsafasi tabiatiga katta ta'sir ko'rsatgan siyasiy voqealar

•XVI asr o'rtalarida ro'y bergan Oliver Kromveli inqilobi, qirolning taxtdan ag'darilishi va qatl qilinishi, respublikaning qisqa vaqt hukmronlik qilishi (independentlar harakati);

•1688 yil “shonli inqilobi”;

•Protestantlikning katolisizm ustidan uzil-kesil g'alabaqozonishi, ingliz cherkovining ichki muxtoriyatga erishuvi uning Rim papasiga bo'ysunmasligi;

•Parlament ahamiyatining ortishi;

•Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi Yangi davr ingliz falsafasi namoendalari

Frensis Bekon falsafadagi empirik (tajriba) yo'nalishining asoschisi

Tomas Gobbs davlat muammolariga katta e'tibor qaratadi, “Leviofan” kitobining muallifi, “ijtimoiy shartnoma” g'oyasini ilgari surgan. Jon Lokk davlat muammolarini o'rgangan, T. Gobbs an'alarini davom ettirgan

#### FRENSIS BEKON

Birinchi yondashuv asoschisi – ingliz faylasufi Frensis Bekon (1561-1626) substansiya shakllarining xususiyatlariga tavsif bergan va substansiyaning muayyan narsalar shakli bilan ayniylashtirgan. Uning fikricha, materiya sariqlik, moviylik, qoramtirlik, iliqlik, og'irlik va boshqa shunga o'xshash xossalarga ega. Bular materiyaning eng sodda xususiyatlaridir. Bu xossalarning turli birikmalaridan tabiatning rang-barang narsalari vujudga keladi. Materiyaning sifat jihatidan har xilligi haqidagi ta'limotni F. Bekon o'zining shakl va harakat haqidagi ta'limoti bilan quvvatlagan. Uning talqinida shakl bu narsaga xos bo'lgan xususiyatning moddiy mohiyati. U Platon va Aristotelning shakl haqidagi mushohadalari bilan bahsga kirishadi. Bekon fikriga ko'ra, shakl – jismni tashkil etuvchi moddiy zarralar harakatining turi.

#### F. Bekon falsafasining ahamiyati

Falsafada empirik (tajribayo'nalishiga asos solindi); Gnoseologiya (bilish) fani falsafaning ikkinchi darajali sohasidan ontologiya darajasigacha ko'tarildi (borliq haqidagi fan har qanday falsafiy tizimning asosiy ikki bo'limidan biriga aylandi);

#### Falsafaning yangi maqsadi aniqlandi

– insonga uning faoliyatida amaliy natijalarga erishish uchun ko'maklashish (shu bilan F. Bekon kelajakdagi amerika pragmatizmi falsafasining tamal toshini qo'ydi); fanni tasniflashda birinchi urinishga qo'l urildi; Angliyada hamda butun Evropada antisxolastik falsafasini harakatga keltirdi. Frensis Bekonning asosiy falsafiy g'oyasi (empirizm)ning mazmuni – bilishning asosi yolg'iz tajriba;

insoniyat (alohida shaxs) qanchalik ko'proq tajriba (nazariy hamda amaliy) to'plasa, shunchalik haqiqiy bilimga yaqinlashadi;

Bekonning fikricha haqiqiy bilim shaxsiy maqsad bo'la olmaydi;

Bekon tomonidan aforizm ilgari surildiki, uning barcha falsafiy qarashlarini qisqagina ifodalab berdi: «Bilim bu – kuch». Bilishning asosiy metodi sifatida - induksiya

#### Xususiyatlari

- Faylasuf induksiyaning ko'pgina hususiy hodisalarning yig'indisi va umumlashgan xulosalar asosida bilimga ega bo'lish deb tushungan (masalan, agar aksariyat metallar suyultirilsa, demak, barcha metallarda bosim mavjud).

- Bekon induksiya metodini Dekartning deduksiya metodiga qarama-qarshi qo'ydi, unga ko'ra, haqiqiy bilimga aniq mantiqiy misollar erdamida olingan ishonchli axborotga tayanib erishish mumkin.

- Bekon induksiyasining Dekart deduksiyasidan afzalligi – bilish jaraèining intensivlashuvi imkoniyatining kengayishidir.

- Induksiyaning kamchiligi – uning ishonchli emasligi, taxminiy xususiyati

Bilish faoliyati kechadigan aniq yo'llar «O'rgimchak yo'li» - «sof tafakkurdan bilimga ega bo'lish, ya'ni rasion-dietik yo'l bilan. Mazkur yo'l aniq dalillar, amaliy tajribani inkor etadi èki ahamiyatini sezilarli darajada pasaytiradi.

Bekonning«Chumoli yo'li» - bilimga ega bo'lishning bunday usulida faqatgina tajribaga e'tibor qaratiladi, ya'ni dogmatik empirizm (rasionalizmdan ajratilgan qarama-qarshiliklarga to'la).

«Asalari yo'li» - Bekonning fikricha bilishning eng mukammal yo'li. Shunday qilib, Bekonga muvofiq, eng yaxshi yo'l empirizm bo'lib, induksiyaga asoslanadi (dalillarni yig'ish va umumlashtirish, tajriba orttirish) hamda narsa va hodisalarning ichki mohiyatini tafakkur orqali anglab etishning rasionalistik usullaridan foydalanadi

Idollar (unsur) - insonga (insoniyatga) haqiqiy bilimga erishishga to'sqinlik qiladilar

Insonning tug'ma yanglishishi, uning mazmuni bilishning tabiatini insonning shaxsiy tabiati bilan aralastirilib yuborilishidir.

Urug' unsuri – inson (ajdodlari)madaniyati orqali bilishning kechishi, ya'ni inson bilishni umuminsoniy madaniyat doirasida olib boradi va bu yakuniy natijaga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi, bilimning haqiqiylikini pasaytiradi.

G'or ruhlari – muayyan inson (biluvchi sub'ekt) shaxsiyatining bilish jaraèniga ta'sir etishi. Natijada inson shaxsiyati (uning qarashlari, yanglishishlari – «g'or») bilishning yakuniy natijasida aks etadi.

Orttirilgan yanglishishlar

Maydon unsuri – nutq, tushunish apparatini: so'zlar, iboralar,tushunchalarni noaniq qo'llash.

Teatr unsuri – mavjud falsafaning bilish jarayoniga ta'siri. Ko'pincha bilish jarayonida eski falsafa yangi uslubni qo'llashga to'sqinlik qiladi, bilishni har

doim ham to'g'ri yo'nalishga boshlamaydi (misol uchun, o'rta asrlarda sxolastikaning

bilishga ta'siri). Shuningdek,laganbardorlar, ikkiyuzlamachilar, safsatabozlar faoliyati.

Tomas Gobbs (1588-1679) – F. Bekonning shogirdi va falsafiy an'analari, qarashlari davomchisi

Falsafiy qarashlari

- qat'iy ravishda teologiya va sxolastikani rad qilgan;

- falsafaning maqsadini inson faoliyatida amaliy natijalarga erishish, ilmiy-texnik taraqqiyotga ko'maklashishda ko'rgan;

- empirizm (tajribaviy bilish) va rasionalizm (tafakkur yordamidagi bilish)o'rtasidagi ziddiyatda empirizm tarafdori bo'lgan; Dekart falsafasini tanqid qilgan;

- ashaddiy materialist bo'lgan;

- asosiy falsafiy muammo deb jamiyat va davlat masalalarini ko'rgan;

- davlat nazariyasini ishlab chiqqan;

- birinchi bo'lib, davlatning kelib chiqishida ijtimoiy (o'zaro) shartnoma asos bo'lganligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan.

#### TOMAS GOBBS

Gobbs materiyaga birdan-bir substansiya sifatida endashgan, barcha hodisalar, narsalar, jaraenlarni bu substansiyaning namoèn bo'lish shakllari deb hisoblagan.

Materiya – abadiy, jismlar va hodisalar – o'tkinchi: ular vujudga keladi va yo'q bo'ladi. Fikrlashni materiyadan ajratib bo'lmaydi, zero materiyaning o'zigina fikrlaydi. Jimsiz tana bo'lmaganidek, jimsiz substansiya ham bo'lishi mumkin emas. Aynan materiya barcha o'zgarishlar sub'ekti hisoblanadi. Barcha moddiy jismlar ko'lamlilik va shakl bilan tavsiflanadi. Ularni o'lchash mumkin, chunki ular uzunlik, kenglik va balandlikka ega. F.Bekondan farqli o'laroq, Gobbsda materiya sifat ko'rsatkichlariga ega emas: u materiyani matematik va mexanik sifatida miqdor jihatidan o'rganadi. Unda materiya dunèsi rang, hid, ovoz kabi xossalardan mahrum. T.Gobbs talqinida materiya go'ya geometrik tus oladi va sifat jihatidan bir jinsli, rangsiz narsa tarzida, miqdoriy kattaliklarning muayyan tizimi sifatida namoèn bo'ladi. Harakatni u faqat mexanik nuqtai nazardan tushunadi. Makon va zamon muammolarini o'rganishga nisbatan Gobbs materialistik nuqtai nazardan yondashadi.

Gobbsning falsafiy tadqiqotlarining predmeti

Gnoseologiya (bilish haqidagi ta'limot); Gobbs bilish uslubi sifatida bir vaqtning o'zida ham induksiya va ham deduksiyadan foydalanish kerak deb bilgan. Insonning bilishi asosan hissiy sezishdan kelib chiqadi. Hissiy bilish – bu sezgi a'zolari (ko'z, quloq va x.k.) tashqi olamdan signallarni qabul qilishi va ularning keyingi tahlilidir. Bu signallarni T. Gobbs «belgilar» deb atagan.

Belgilarning tasniflanishi tovushlar – hayvonlar tomonidan o'z hatti-harakatlari va niyatlarini ifodalash uchun yo'llanadigan ovozlar (qushlarning sayrashi, yirtqichlarning o'kirishi, mièvlashi va x.k.)

.alamatlar – inson tomonidan muloqat uchun o'ylab topilgan har xil belgilar;

tabiiy belgilar – tabiat «alamatlari» (momaqaldiraq, chaqmoq, bulutlar va x.k.);ixtiyoriy kommunikativ belgilar – turli tillarning so'zlari;

«alamat» sifatidagi belgilar – ko'pchilikka tushunarli bo'lmagan, maxsus «kodlangan» nutq (ilmiy til, diniy til, jargon va x.k.);

belgilar belgisi – nomlar nomi – universallar (umumiy tushunchalar).Gobbsning ijtimoiy-falsafiy qarashlari Jamiyat va davlat muammosi, Gobbsning fikricha falsafada

asosiydir, chunki falsafaning maqsadi insonga uning faoliyatida amaliy natijalarga erishishga ko'maklashishdir, inson esa jamiyatda va muayyan davlatda yashab, faoliyat yuritadi. Jamiyat va davlat nazariyasi 1651 yil Kromveli diktaturasi davrida nashr etilgan «Leviafan» («Mahluq») falsafiy asarida keltirilgan.

davlat – mustahkam, ko'pqirrali, qudratli mahluq «Leviafan» bo'lib, o'zining yo'lida barcha narsani eb, yo'q qilib boradi, unga qarshilik qilib bo'lmaydi, ammo bu jamiyatda sog'lom muhitni yaratish, tartib va adolatni o'rnatish muhimdir.

Djon Lokk (1632-1704) Bekon va Gobbsning ko'plab falsafiy g'oyalarini rivojlantirdi, bir nechta o'z nazariyalarini ilgari surdi, ingliz falsafasida empirik va materialistik an'anani davom ettirdi

Lokk falsafasining asosiy qoidalari

-Dunyo moddiydir;

-Bilish asosida faqat tajriba ètadi va inson ongida bungacha hislarda bo'lmagan hech narsa yo'q;

-Ong – butun umr davomida tajriba bilan to'ldiriladigan bo'sh xona (empty cabinet), bunda Lokkning ong tajriba èziladigan “toza taxta”

tabula rasa haqidagi butun dunèga mashhur iborasini keltirish o'rinli;

-Tajriba manbasi sifatida tashqi dunè ko'riladi;

-Falsafaning maqsadi – insonga o'z faoliyati davomida muvaffaqiyatga erishishiga èrdam berish;

-Insonning ideali – o'z ta'lim darajasini oshirib boradigan va o'z kasbida yaxshi natijalarga erishadigan xotirjam, qonunga itoatli, tartibli inson;

-Davlat ideali – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi (shu jumladan, sud) va federativ (tashqi siyosat) bo'linishi asosida qurilgan davlat; Lokk ushbu g'oyani ilgari surgan birinchi shaxs va bunda uning xizmatlari katta.

## XULOSA

Insoniyat taraqqiètida har bir davr an'anaviy falsafiy muammolarni ilgari surgan va ularni o'z davri dunèqarashi ta'sirid hal qilishga harakat qilgan. Falsafa tarixini yangi shoxchalari paydo bo'ladigan daraxtga qiyoslash mumkin, har bir shox o'z shakliga va yaproqlarining rangiga ega bo'lib, ular boshqalarini takrorlamaydi. Biroq daraxt shoxlari kabi falsafiy yo'nalishlar qancha ko'p bo'lmasin, ularda umumiy ildiz- inson va olamning o'zaro aloqadorligi, inson va jamiyat haètining uzviyligi birlashtiradi. Ushbu umumiy ildiz inson madaniyatining dunèqarashli asosi sifatida falsafaning ahamiyatini chuqurroq tushunishga imkon beradi. XX asr turli davrlardagi falsafiy yo'nalishlarni o'zida birlashtirdi va o'tmish tajribasiga tayangan holda, olam va odam masalasiga juda murakab ijtimoiy siyosiy vaziyatda ziddiyatli, yangi falsafiy qarashlar shakllandi. Hozirgi zamon G'arb falsafasining o'ziga xos xususiyati uning dunèqarashli va metodologik jihatdan turli tumanligidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jahon falsafasi tarixidan lavhalar. (Tuzuvchi va ilmiy muharrir Q.Nazarov. mas’ul muharrir M.Baratov). —T.:Faylasuflar milliy jamiyati, 2004.
2. Yo‘ldoshev S. Antik davr falsafasi. -T., UzMU,1998.
3. Yo‘ldoshev S. va boshqalar. Yangi va eng Yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi (XVII-XX asrlar). -T.: Sharq, 2002.
4. Yo‘ldoshev S., Usmonov M., Karimov R. Qadimgi va o‘rta asr G‘arbiy Yevropa falsafasi. —T.: Sharq, 2003.
5. Kamyu A. Begona. - T., 1999.
6. Pulatova D.A.. Rozmatova G.M. Falsafa tarixi: G‘arb falsafasi. -T.:TDSHI,2013.
7. Sulaymonova F. Sharq va G‘arb. -T.: Sharq,1992.
8. Skirbekk G., Gile N. Falsafa tarixi. -T.: Sharq,2002.
9. Falsafa. Qomusiy lug‘at. — T.: Sharq, 2004.
10. G‘arb falsafasi.Tuzuvchi va mas.muharrir: Q.Nazarov. — T.: Sharq, 2004.Ingliz titida
11. Russell B. A The History of Western Philosophy. — New York: America book-stratford press, 2010.
12. Copleston F. A History of Philosophy. -Vol.1-8. - N.Y., London, 2003-2004.
13. Антология мировой философии в 4-х томах.Т. 1.4.1. - М., 1969.
14. Асмус В.Ф. История античной философии. -М.: Мысль,1985.
15. Shigabutdinova D. Y. The Concept of Culture in English Philosophy //The Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – 2021.
16. {PHILOSOPHICAL CULTURE IN ENGLISH-SPEAKING COUNTRIES}, author={Shigabutdinova Dina Yasavievna, Safarova Nigora Olimovna}, journal={International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE)}, volume={14}, number={2}, {4435--4440}, year={2022}, publisher={10.9756/INT-JECSE/V14I2.489 ISSN:1308-5581 Vol 14, Issue 02, 2022}